

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi tomonidan 2023- yilning III- choragida Davlat statistika ishlar dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i B. Maxmadaliyevning

AXBOROTI

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i B. Maxmadaliyev kun tartibidagi yig'ilishni ochib berdi va ishtirokchilarni kun tartibidagi masalalar bilan tanishtirib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 22- yanvardagi PF –60- son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga doir Davlat dasturi” doirasida tizim oldiga belgilab berilgan.

Topshiriqlarni so'zsiz, sifatli va o'z muddatida ijrosini ta'minlash borasida 2023- yilning III- choragida amalga oshirilgan ishlar hamda statistika organlari oldida turgan kelgusidagi ustuvor vazifalar haqida gapirib o'tdi.

Shuningdek, “2023- yil uchun Davlat statistika ishlari dasturi” doirasida boshqarma va tuman, shahar statistika bo'limlari tomonidan 2023- yilning III- choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlarni keltirib o'tdi.

Jumladan, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi joriy narxlarda **41 646,0** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davri bilan taqqoslaganda **4,5** % ga o'sdi.

Viloyat korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylari davomida **20 425,9** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi **107,0** % ni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **28 093,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,6** % ga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **13 893,1** mlrd. so'mni, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,4** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi **13 509,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **5,6** % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **463,6** mln. AQSh dollarini, jumladan eksport – **299,2** mln. AQSh dollarini va import – **164,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Xususan, 2023- yil uchun Statistika dasturiga muvofiq, joriy yilning yanvar-sentabr oylarida jami **932 ta** statistika ishlari belgilangan muddatlarda bajarildi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylari uchun Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari bo'yicha statistik ma'lumotlar tayyorlanib, viloyat hokimligi, viloyat iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish boshqarmasi hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga taqdim etildi.

Statistika dasturiga muvofiq, bajarilgan ishlar natijalariga ko'ra axborotnomalar

va press-revizlar ko‘rinishida shakllantirilgan ochiq statistika ma’lumotlari ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda milliy va xorijiy foydalanuvchilar e’tiboriga yetkazib berildi.

Xususan, boshqarmaning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy Telegram kanalida **2282 ta**, Facebook sahifasida **421 ta** tahliliy-statistik ma’lumotlar yangiliklar ko‘rinishida e’lon qilindi, infografika roliklari boshqarmaning Youtube kanalidagi rasmiy sahifasida joylashtirib borildi.

Shuningdek, **27 ta** infografika roliklari hamda statistika faoliyatiga oid **53 ta** lavhalar “Qashqadaryo”, “Nasaf” telekanallarida doimiy tarzda efirga uzatilib kelinmoqda.

“Adolat kuchi”, “Qashqadaryo”, “Xazina”, “Voha” va boshqa nashrlarda statistik ko‘rsatkichlar aks etgan **28** dan ortiq materiallar chop etildi.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-saytining “Rasmiy statistika” bo‘limida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, milliy hisoblar, narx va indekslar, sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, investitsiya va boshqa qator statistika yo‘nalishlari bo‘yicha **178 ta** statistika ma’lumotlari to‘plamlari e’lon qilindi.

Statistika ma’lumotlari sifatini oshirish borasida hisobot topshiruvchi subyektlar o‘rtasida profilaktika tadbirlari amalga oshirilmogda. Jumladan, 2023 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida **3289** ta respondentlarga tushuntirishlar o‘tkazilib, jumladan, **4760** ta yangi tashkil etilgan respondentlar profilaktika tadbirlari davomida qamrab olindi, **3247** ta bukletlar tarqatildi va **174** marta ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etildi.